

100011, Toshkent shahri, Abay ko'chasi, 6-uy, Tel/Faks: 55-301-67-57, E-mail: davexpertiza@exat.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig'i: Yodgorov Oybek To'lqin O'g'li

Sana: 19-03-2025 yil



YIG'MA EKSPERT XULOSASI

234204 - SONLI

Obyekt nomi: Buxoro shahar Sa'diy Sheroziy MFY Abu Ali Ibn Sino ko'chasida "Zikkurat group MCHJ" "Birinchi qavatlarida savdo va maishiy xizmat ko'rsatish, yuqori qavatida ko'p xonadonli turar joy" binosi (A va B bloklar)	
Buyurtmachi:	ZIKKURAT GROUP MCHJ
Bosh loyihachi:	"NEW-ARCH" mas'uliyati cheklangan jamiyati
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Tanlov savdolari natijalariga asosan
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	047629

1. Loyihalash uchun asos.

1.1 Buxoro shahri tumani qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi 2024-yil 6 dekabrda 162410062-sonli ruxsatnoma.

1.2 Buxoro viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi Yagona Interaktiv Davlat xizmatlari portali orqali 2024 yil 11 dekabrda 1706-1706401-208825-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig'i.

1.3 O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi tomonidan 2022-yil 27-sentabrdagi 040566sonli muhandislik - texnik qidiruvlar va Geodezik va kortografiyani bajarish Tasdiqnoma (reyestr raqami X-146194) berilgan "ZEMLEMER PLYUS" MCHJ ning geologia xulosasi.

1.4 O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tomonidan tomonidan 12.01.2021 yilda AL-001588 sonli muhandislik - texnik qidiruvlarni bajarish "MAXSUS YAGONA LOYIHA" MCHJ ga litsenziya berilgan

1.5 Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyiha topshirig'i.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1 Albom. Bosh reja.

2.2 Albom. Arxitektura qurilish bo'limlari.

2.3 Albom. Ichki elektr ta'minoti, Ichki suv va oqova suv ta'minoti, ichki issiqlik tizimi, yong'indan ogohlantirish va aloqa tizimi bilan Noananaviy energiyadan foydalanish quyosh panellari va maxsus spetsifikatsiyalar.

2.4 Bino va inshootlarning texnik holati bo'yicha xulosa.

2.5 Muhandislik-geologik xulosa.

2.6 Smeta hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Bino						
Turi	Nomi	Qavati	Qurilish maydoni	Umumiy maydoni	Xajmi	Xonadonlar soni
Ko'p xonadonli turar joy binosi	"1-QAVATLARIDA SAVDO VA MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH VA YUQORI QAVATLARIDA KO'P XONADONLI TURAR-JOY" BINOSI	7	1360.0	8339.7	31952.58	102
Jami:			1360	8339	31952	102

3.1 Qurilish maydonining xususiyatlari. Loyihalangan bino va inshootlarning asosini IGE №2 suglinik va supes aralashmali qumli qatlam suvga to'yingan, to'q kulrangdan. Fizik - mexanik xossalari $\gamma_1=18.2\text{ kH/m}^3$, $C=1.0\text{ KPa}$, $\varphi=26.0^\circ$. Elementlarning quvvati 4.5-5.0 m gacha. Tuproqlarning uglerodli po'latga nisbatan korroziyali agressivligi yuqori. Yer osti suvlarinig maksimal balandligi 2.5 m mavjud yer sathidan. Qatlam cho'kuvchanlik turi I tur, qalinligi 2.5 metrgacha. Mavsumiy muzlashning maksimal chuqurligi 0,57 m. Qurilish maydonining zilzilabardoshliligi 7 ball. Tuproqlarning zilzilabardoshlilik toifasi uchinchi hisoblanadi. Qurilish maydonining taxminiy zilzilabardoshliligi 8 ballni tashkil etadi.

3.2 Texnologik yechimlar. ShNQ 2.08.01-24 "Turarjoy binolari" va ShNQ 2.08.02-23 «Jamoat binolari va inshootlari», talablarini loyihalash bo'yicha tasdiqlangan topshirig'iga muvofiq texnologik yechimlar qabul qilindi va Buyurtmachi bilan kelishilgan.

3.3 Hudud. "1-qavatida savdo va maishiy xizmat ko'rsatish va yuqori qavatlarida ko'p xonadonli turar-joy" binosi qurilishi loyihalashtirilayotgan 0.28 ga.dan iborat yer uchastkasi Buxoro shahar Sa'diy Sheroziy MFY, Abu Ali Ibn Sino ko'chasi hududida joylashgan. Obyekt joylashuvi loyiha kelishuvi asosida.

3.4 Bosh reja. Ob'yektning umumiy bosh rejasi amaldagi me'yorlarga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan. Loyihada qiyalik yaratish va mavjud relyef hududdan yomg'ir suvini oqishi va yashil maydonlarni sug'orish imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil qilindi. Hududni obodonlashtirish loyihasi, transport aloqasi qulayligi va o't o'chirish mashinalarining binolarga kirishi uchun qattiq sirtli yo'llar va maydonlarni joylashtirish sharti bilan ishlab chiqilgan.

Loyihalashtirish uchun ajratilgan umumiy 15500.0 kv.metr yer maydoni quyidagicha chegaralangan: Shimol tomondan — Ichki yo'l bilan; Janub tomondan — Abu Ali Ibn Sino

ko'chasi bilan; Sharq tomondan — Ichki yo'l bilan; G'arb tomondan — Ichki yo'l bilan chegaralangan;

Loyihada quydagilar rejalashtirilgan: 7 qavatli bir yo'lakli (1 dona) va ikki yo'lakli (1 dona) turarjoy binolari, bolalar maydonchasi, yo'l va yo'laklar, avtoturargoh, chiqindi tashlash joylari, yong'inga qarshi gidrant rejalashtirilgan, Shuningdek Qurilish bosh boshqarmasi huzuridagi arxitektura-shaharsozlik kengashi tomonidan 2024 yil 18 dekabrda 163908596 - sonli ijobiy xulosa berilgan.

Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar.

Umumiy chegaraviy maydoni - 2800m^2

Qurilish maydoni - $1\,360.0\text{m}^2$

Yo'l va yo'laklar - 944.0m^2

Obodonlashtirish yashil maydonlar - 496.0m^2

3.5 Loyihada quyidagilar ta'minlanadi:

A-Blok.

Arxitektura va qurilish yechimlari. Loyihalashtirilgan hududda bino o'lchami 17.10×60.20 metr konstruktiv yechimi ramali 7 qavatli yer to'la balandligi 3.60 m, birinchi qavat balandligi 4.80m, ikkinchi va yettinchi qavatlar balandligi 3.2m.

Yerto'la qismida savdo va maishiy xizmat ko'ratish xonalari, zina, lift shaxtasi joylashtirilgan.

Birinchi qavatda - savdo va maishiy xizmat ko'ratish xonalari, zina, lift shaxtasi joylashtirilgan.

Ikkinchi – yettinchi qavatlarda – har bir qavatda zina, lift shaxtasi, karidor, 1 xonali (4 dona), 2 xonali (8 dona) joylashtirilgan.

Jami 72 ta xonadondan iborat.

A- blok bo'yicha Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari:

Umumiy maydon - $6\,439.20\text{m}^2$

Qurilish maydoni - 930.60m^2

Qurilish hajmi - $24\,195.60\text{m}^3$

Fasadning me'moriy yechimlari.

Poydevorning yer ustki qismi (Sokol) – penopolistirool izolyatsiya setka bilan kuchaytirish va keramik plitka qoplama bilan qoplash ko'zda tutilgan.

Devorlar – fasad to'rlarida bazalt asosidagi izolyatsiyalash bilan yaxshilangan gips bilan devorlarni suvoqlash va "Travertin" dekorativ devor bezagi bilan qoplash.

Konstruktiv yechimlar: seysmik yuklarni qabul qiluvchi devorlari ishtirok etmaydigan monolit temir-beton ramali diafragma bilan ishlab chiqilgan. Bino monolit devorli gazablok to'ldiruvchi devordan iborat yechim, uning fazoviy rama va diafragma va qoplamaning temir-beton diskining ishi bilan ta'minlanadi KMK 2.01.03-2019, 3.1- jadval asos.

Poydevorlar – B20 sinfidagi betondan tayyorlangan monolitik temir-beton poydevor plitada B20 sinfidagi betondan yasalgan monolitik temir-beton devorlar.

Diafragma – B25 sinfidagi betondan tayyorlangan monolitik temir-beton.

Lift shaxtasi – B20 sinfidagi betondan tayyorlangan monolitik temir-beton.

To'sinlar (rigel)– B25 sinfidagi betondan tayyorlangan monolitik temir-beton.

Ustunlar (kalona) – loyihaviy B25 sinfidagi betondan tayyorlangan monolitik temir-beton (B15 sinfidagi ustunlar texnik hisobot asosida metal burchaklar bilan kuchaytirish ishlari ko'zda tutilgan).

Devorlari – 300 mm qalinlikda gazablok $D600\text{Kg/m}^3$ bloklar va metal karkas bilan kuchaytirish ko'zda tutilgan.

Kvartiralarni bo'luvchi pardevorlar – 200-100mm qalinlikda gazablok $D600\text{Kg/m}^3$ bloklar va metal karkas bilan kuchaytirish ko'zda tutilgan.

Savdo maishiy do'konlarni bo'lovchi pardevorlar – GOST 530-80 M50 markali qorishma bilan M75 g'ishtdan qilingan, metal burchaklar bilan kuchaytirilgan.

Tomyopma va orayopma – betondan tayyorlangan temir-beton plitalardan.

Zinapoyalar – B22.5 sinfidagi betondan tayyorlangan monolitik temir-betonlardan.

Tom qoplamasi – yog'och konstruksiya ustida polimer qatlamli profnastil bilan qoplash ko'zda tutilgan.

Buyurtmaching topshirig'iga asosan 7 qavatli turar-joy binosini qurilishi obyekti loyihasi "Ipoteka kreditidan foydalanishda aholiga qo'shimcha qulayliklar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident (PQ-377-son, 22.09.2022yil.) qarorning 3-so'z boshiga keltirilgan talab asosida, xususiy pudrat tashkiloti tomonidan qurilgan uylardagi kvartiralarni (xonalarga bo'lingan va pardozlash ishlariga tayyor) holga keltirib qurib bitkazish inobatga olinib loyihalashtirilgan.

Eshik romlari - metal va MDF eshik romlaridan ichki MDF eshik romlar smetada hisobga olinmagan.

Pol qoplamasi, beton asosli laminat va keramik plitkalar, smetada pollar tarkibi beton asosdan tashqari qatlam hisobga olinmagan.

Deraza romlari – ikki qavat oynalar bilan qoplangan metall-plastmassa profillardan, PVX deraza tokchalari pvxdan.

Ichki pardozlash – devorlarni yaxshilangan suvoq bilan suvoqlash va suvli emulsiya bilan bo'yash shift choklarini to'ldirish va suvli bo'yoq bilan bo'yash, suvoq qatlamdan tashqari bezak berish ishlari smeta qismida hisobga olinmagan.

Korroziyadan himoya qilish. Binoning poydevori ostida gidroizolyatsiya qalinligi 30 mm qalinlikdagi sementli qorishma bilan tekislash, gruntни bostirish va 3000 mm yuvilgan shag'al ustida asfalt betondan amalga oshiriladi qalinligi 100mm va orasida 3 mm bo'lgan TPP yotqizish ko'zda tutilgan. Turar-joy binosi poydevorining yon sirtlari qalinligi 3 mm bo'lgan ikki qatlam TPP poliizol qatlami bilan yopishtirilgan. Yer osti inshootlari uchun GOST 10178-85* bo'yicha Portland sementida normal o'tkazuvchanlik betoni qabul qilingan.

B-Blok.

Arxitektura va qurilish yechimlari. Loyihalashtirilgan hududda bino o'lchami 19.60x18.0 metr konstruktiv yechimi ramali 7 qavatli yer to'la balandligi 3.0 m, birinchi va yettinchi

qavatlar balandligi 3.15 m.

Yerto'la qismida texnik xizmat ko'ratish xonalari, zina, lift shaxtasi joylashtirilgan.

Birinchi qavatda - savdo va maishiy xizmat ko'ratish xonalari, zina, lift shaxtasi joylashtirilgan.

Ikkinchi - yettinchi qavatlarda - har bir qavatda zina, lift shaxtasi, karidor, 1 xonali (2 dona), 2 xonali (3 dona) joylashtirilgan.

Jami 30 ta xonadondan iborat.

B- blok bo'yicha Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari:

Umumiy maydon - 1 900.50 m²

Qurilish maydoni - 321.20 m²

Qurilish hajmi - 7 756.98 m³

Fasadning me'moriy yechimlari.

Poydevorning yer ustki qismi (Sokol) - penopolistirool izolyatsiya setka bilan kuchaytirish va keramik plitka qoplama bilan qoplash ko'zda tutilgan.

Devorlar - fasad to'rlarida bazalt asosidagi izolyatsiyalash bilan yaxshilangan gips bilan devorlarni suvoqlash va "Travertin" dekorativ devor bezagi bilan qoplash.

Konstruktiv yechimlar: seysmik yuklarni qabul qiluvchi devorlari ishtirok etmaydigan monolit temir-beton ramali diafragma bilan ishlab chiqilgan. Bino monolit devorli gazablok to'ldiruvchi devordan iborat yechim, uning fazoviy rama va diagfragma va qoplamaning temir-beton diskining ishi bilan ta'minlanadi QMQ 2.01.03-2019, 3.1- jadval asos.

Poydevorlar - B20 sinfidagi betondan tayyorlangan monolitik temir-beton poydevor plitada B20 sinfidagi betondan yasalgan monolitik temir-beton devorlar.

Diagfragma - B25 sinfidagi betondan tayyorlangan monolitik temir-beton.

Lift shaxtasi - B20 sinfidagi betondan tayyorlangan monolitik temir-beton.

To'sinlar (rigel)- B25 sinfidagi betondan tayyorlangan monolitik temir-beton.

Ustunlar (kalona) - loyihaviy B25 sinfidagi betondan tayyorlangan monolitik temir-beton (B15 sinfidagi ustunlar texnik hisobot asosida metal burchaklar bilan kuchaytirish ishlari ko'zda tutilgan).

Devorlari - 300 mm qalinlikda gazablok D600Kg/m³ bloklar va metal karkas bilan kuchaytirish ko'zda tutilgan.

Kvartiralarini bo'luvchi pardevorlar - 200-100mm qalinlikda gazablok D600Kg/m³ bloklar va metal karkas bilan kuchaytirish ko'zda tutilgan.

Savdo maishiy do'konlarni bo'lovchi pardevorlar - GOST 530-80 M50 markali qorishma bilan M75 g'ishtdan qilingan, metal burchaklar bilan kuchaytirilgan.

Tomyopma va orayopma - betondan tayyorlangan temir-beton plitalardan.

Zinapoyalar - B25 sinfidagi betondan tayyorlangan monolitik temir-betonlardan.

Tom qoplamasi - yog'och konstruksiya ustida polimer qatlamli profnastil bilan qoplash ko'zda tutilgan.

Buyurtmaching topshirig'iga asosan 7 qavatli turar-joy binosini qurilishi obykti loyihasi "Ipoteka kreditidan foydalanishda aholiga qo'shimcha qulayliklar yaratish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi Prezident (PQ-377-son, 22.09.2022yil.) qarorning 3-so'z boshiga keltirilgan talab asosida, xususiy pudrat tashkiloti tomonidan qurilgan uylardagi kvartiralarini (xonalarga bo'lingan va pardozlash ishlariga tayyor) holga keltirib qurib bitkazish inobatga olinib loyihalashtirilgan.

Eshik romlari - metal va MDF eshik romlaridan ichki MDF eshik romlar smeta hisobga olinmagan.

Pol qoplamasi, beton asosli laminat va keramik plitkalar, smetada pollar tarkibi beton asosdan tashqari qatlam hisobga olinmagan.

Deraza romlari - ikki qavat oynalar bilan qoplangan metall-plastmassa profillardan, PVX deraza tokchalari pvxdan.

Ichki pardozlash - devorlarni yaxshilangan suvoq bilan suvoqlash va suvli emulsiya bilan bo'yash shift choklarini to'ldirish va suvli bo'yoq bilan bo'yash, suvoq qatlamdan tashqari bezak berish ishlari smeta qismida hisobga olinmagan.

Korroziyadan himoya qilish. Binoning poydevori ostida gidroizolyatsiya qalinligi 30 mm qalinlikdagi sementli qorishma bilan tekislash, gruntни bostirish va 2000 mm yuvilgan shag'al ustida asfalt betondan amalga oshiriladi qalinligi 100mm va orasida 3 mm bo'lgan TPP yotqizish ko'zda tutilgan. Turar-joy binosi poydevorining yon sirtlari qalinligi 3 mm bo'lgan ikki qatlam TPP poliizol qatlami bilan yopishtirilgan. Yer osti inshootlari uchun GOST 10178-85* bo'yicha Portland sementida normal o'tkazuvchanlik betoni qabul qilingan.

3.6 Harakati cheklangan odamlar uchun qulay foydalanishni ta'minlaydigan yechimlar.

Loyihada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarga qulay va to'siqlarsiz muhit yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ266-son qaroriga muvofiq zinalarda panduslar o'rnatish, yo'laklar ko'zi ojiz shaxslar harakatlanishi uchun taktil qoplama bilan jihozlanishi va avtoturargohda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun joy ko'zda tutilgan.

3.7. Energiya samaradorlik.

Energiya samaradorlikni ta'minlash uchun quyidagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:

- zichligi $\gamma=125-130$ kg/m³, qalinligi 100 mm bo'lgan bazalt plitalardan devor termoizolyatsiyasi bajarilgan
(termoizolyatsiyaning ikkinchi darajasi);
- zichligi $\gamma=140-160$ kg/m³, qalinligi 150 mm bo'lgan bazalt plitalardan tom termoizolyatsiyasi bajarilgan
(termoizolyatsiyaning ikkinchi darajasi);
- tomda quyosh panellari, quyosh kollektorlari o'rnatilgan;
- FIK yuqori samarador radiatorlar va isitish uskunalaridan foydalanilgan va boshqalar;
- yoritish svetodiodli sensorli datchikli chiroqlar orqali bajarilgan va boshqalar;

4. Loyihalayanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Tashqi suv ta'minoti. "Buxoro suv ta'minoti" AJ ning 2024-yil 25-dekabrda 531-sonli texnik shartiga asosan Buxoro shahar Abu Ali Ibn Sino ko'chasi hududidan o'tgan mavjud ichimlik suv qudug'ining iste'molchilar uchun chiqarilgan po'lat qismidan ulash tavsiya etilgan. Kunlik suv sarfi 21 m³. Ulanish nuqtasidagi Quvur D-700 mm, Materiali – po'lat, Chuqurligi 1.0-1.2 m, Erkin bosimi 1.2-1.4 atm, Ulanish nuqtasining taxminiy joylashuv koordinatasi (394639.57"C 6426'38.23"B) Ichimlik suv tarmog'ini birinchi navbatda gidravlik bosim ostida tekshirish keyingi o'rinlarda tarmoqni zararsizlantirish (xlorlash) choralar ko'rilishi belgilangan. Talab etilgan holda suv bog'lagich (zadvijka) va yong'inga qarshi suv olgich (PG) o'rnatish belgilangan.

Oqava tarmog'i. "Buxoro suv ta'minoti" AJ ning 2024-yil 25-dekabrda 531-sonli texnik shartiga asosan Buxoro shahar Oq Masjid ko'chasi hududidan o'tgan mavjud ichimlik suv qudug'ining iste'molchilar uchun chiqarilgan po'lat qismidan ulash tavsiya etilgan. Ulanish nuqtasidagi Quvur D-600 mm, Materiali – polietilen, Chuqurligi 1.8-2.0 m. Ulanish nuqtasining taxminiy joylashuv koordinatasi (394639.57"C 6426'38.23"B).

Tashqi elektr ta'minoti. Asosiy elektr ta'minoti "HUDUDIIY ELEKTR TARMOQLARI" AJ "Buxoro" XETK ning 2024-yil 24-dekabrda 32-12/1374-son texnik shartida asosiy elektr ta'minoti "Shimoliy" 35/6 kV podstantsiyasidan chiquvchi "Nizomiy" 6 kV fideri bo'yicha 512-raqamli GKTPning yuqori kuchlanishli yacheykasidan o'rnatiladigan asosiy TPgacha 6 kV elektr uzatish tarmog'i qurish belgilangan.

Zaxira elektr ta'minoti "HUDUDIIY ELEKTR TARMOQLARI" AJ "Buxoro" XETK ning 2024-yil 24-dekabrda 32-12/1374-son texnik shartida asosiy elektr ta'minoti "Shimoliy" 35/6 kV podstantsiyasidan chiquvchi "Trolleybus-2" 6 kV fideri bo'yicha 104-raqamli GKTPning yuqori kuchlanishli yacheykasidan o'rnatiladigan asosiy TPgacha 6 kV elektr uzatish tarmog'i qurish belgilangan. Obyektning elektr yuklamalari markazida ikki transformatorli 6/0,4 kV transformator punkti (TP) o'rnatilish belgilangan.

Issiqlik ta'minoti. Har bir honadonda elekt isitish qozoni ko'zda tutilgan. Quvurlar o'rnatish, pnevmatik sinovdan o'tkazish, kranlar o'rnatish, atvovlar o'rnatish qo'shimcha elementlar. Isitish tizimi pastki simli bitta quvurli gorizontaldir. Isitish moslamalari sifatida alyumin radiatorlar o'rnatish qabul qilingan. Ichki isitish uchun polipropilen quvurlar taqdim etiladi. Loyiha kengaytirish baklarini o'rnatishni ko'zda tutadi. Shuningdek muhandislik tarmog'i ya'ni tashqi suv va oqava suv tarmog'i, issiqlik ta'minoti keyingi bosqichda amalga oshirilishi loyihalash ishlari ikkinchi bosqichda ko'zda tutilgan.

Ichki suv ta'minoti va oqava suv tarmoqlari. Sovuq suv ta'minoti tizimining quvurlari polipropilen quvurlardan ta'minlanadi shuningdek xonadonlarda zamonaviy aqlli elektron hisoblagichlar o'rnatish ko'zda tutilgan. Loyihada hisoblagichlarni, Nasoslar o'rnatish shuningdek nasos xonasida drenaj o'rnatish ko'zda tutilgan, barcha loyihada yong'in o'chirish tizimi uchun metal quvurlar, shlang nasoslar ko'zda tutilgan. GOST 18599-01 ga oqava suvlar uchun politelen quvurlar, sanitar jihozlar o'rnatish ko'zda tutilgan.

Issiq suv taminoti tomida quyosh suv isitish bollerlari hamda elektr isitish qozonlaridan foydalanish ko'zda tutilgan.

Ichki elektr yoritish. Binolarni elektr yoritish QMQ 2.01.05-24 va QMQ 2.04.17-19 ga muvofiq ishlab chiqilgan. Kirish moslamasi sifatida shkaflar o'rnatish va taqsimlash shkaflari, boshqaruv shkaflari, Avtomatik kalitlarga ega zamonaviy aqlli elektron hisoblagichlar, yoritgichlar, o'chirib yoqgich, har bir xonadonda yorug'lik chiroqlar, rozetkalar, oshxona jihozlari va qozon uchun elektr ta'minoti, energiyani tejaydigan lampalar bilan yoritish moslamalari taqdim etiladi. Loyihada elektr qo'ng'iroqlarni o'rnatish, fasad qismida dekorativ yoritgichlar o'rnatish, elektr tokini yerga ulash ko'zda tutilgan, shuningdek tomda quyosh elektr energiyasi ishlab chiqadigan panellar o'rnatish, aloqa tizimi va yong'indan ogohlantirish tizimlarini o'rnatish ko'zda tutilgan.

Issiqlik taminotiga ulanish. Quvurlar o'rnatish, pnevmatik sinovdan o'tkazish, kranlar o'rnatish, atvodlar o'rnatish qo'shimcha elementlar. Isitish tizimi pastki simli bitta quvurli gorizontaldir. Isitish moslamalari sifatida bimetalik radiatorlar o'rnatish qabul qilinadi. Ichki isitish uchun polipropilen quvurlar taqdim etiladi. Loyiha kengaytirish baklarini o'rnatishni nazarda tutadi.

Smeta hujjatlari. Ko'rib chiqish uchun taqdim etilgan smeta hujjatlari "SHNQ" smeta resurs normalari to'plamlari bo'yicha resurs usuli yordamida joriy narxlarda tuzilgan. Smeta hujjatlari doirasida quyidagilar taqdim etiladi: lokal resurslar qaydnomasi, zarur resurslar ro'yxati, joriy narxlarda ob'yektning tavsiya etilgan narxini hisobkitobi. Ob'yektning tavsiya etilgan narxi, qurilish ishchilarining o'rtacha oylik ish haqi, pudratchining "boshqa xarajatlari" ulushi, qurilish materiallari va uskunalari narxlari, mashinalarni va mexanizmlarini ekspluatatsiyasi, qurilish mahsulotlari uchun transport xarajatlari miqdori buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan 2025 yil 7 martdagi 07/1-sonli dastlabki ma'lumotlarga va tasdiqlangan narxnomaga asosan qabul qilingan. Tavakkalchlik koeffitsiyenti qabul qilinmagan.

Yong'inga qarchi choralar. Loyihalashtirilgan bino va inshootlarning yong'inga chidamlilik darajasi II. Loyiha odamlarni favqulodda chiqishlar orqali xavfsiz evakuatsiya qilishni nazarda tutadi. Barcha yog'och konstruktiv elementlar antiseptiklar bilan singdirilgan va olovni to'xtatuvchi moddalar bilan ishlov berilgan, qochish yo'llaridagi devorlar va shiftlar yonmaydigan materiallardan yasalgan, qochish yo'llarining eshiklari chiqish tomon ochiladigan eshiklar bilan ta'minlangan. Binolar orasidagi yong'inga qarshi tanaffuslar sanitariya me'yorlarini hisobga olgan holda ta'minlanadi, o't o'chirish mashinalarining binolarga kirishi ta'minlanadi va o't o'chirish uchun gidrantlar o'rnatish ko'zda tutilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Loyiha ko'rib chiqilgan va buyurtmachi tomonidan izohlarsiz qabul qilingan.

Loyiha Buxoro viloyati hokimligi huzuridagi arxitektura va qurilish bosh boshqarmasi shaharsozlik kengashi yig'ilishi bayonnomasida ko'rib chiqilgan.

Loyihada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.04.2024 yildagi PQ-161-sonli qarori bo'yicha qabul qilingan yechimlarning javobgarligi buyurtmachi zimmasiga yuklatildi.

(Buyurtmachining tasdiqlangan kafolat xati).

Davlat ekologik ekspertizasining 2024 yil 26 dekabrda 01-02/15-1914 sonli xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko'ra qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) bilan **37 508 372 489** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

2 233 329 976 so'mga kamaytirilib, **35 275 042 513** so'mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **28 904 158 340** so'm

Asbob-uskunalar: **2 591 415 332** so'm

QQS: **3 779 468 841** so'm

Ekspertiza jarayonida mahalliy ekspert xulosalari bo'yicha ish tartibida loyiha hujjatlariga quyidagi

asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi:

- Ustunlarni va to'sinlarda kuchaytirish ishlari qayta ko'rib chiqildi.
- Ustunlarni va to'sinlarda beton markalari texnik xisob kitob asosida to'g'irlandi.
- Bosh rejada yer ishlari qayt ko'rib chiqilib tuzatishlar olib borildi .
- Harakati cheklanagan va ko'zi ojizlar uchun qo'shimcha NBSH albomi ishlab taqdim qilindi.
- Qurilish meyorlari hamda materiallariga aniqlik kiritildi.

Yakuniy narx buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilishni tugagandan so'ng, nazorat o'lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

Buyurtmachi smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

Mazkur ob'yekt buyurtmachining o'z mablag'lari hisobiga qurilayotganligi sababli, smeta qismi qurilishning sifatsiz bajarilishiga yoki byudjet mablag'lariga zarar yetishiga olib kelmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarorining 7-ilovasiga, 2016-yil 22-yanvardagi 15-sonli qarorining 4-ilova, II-bob 8-bandiga muvofiq va ShNQ 1.03.06-13 da «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi»ga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo'yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo'yicha) javobgar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-son qarori 1-ilovasi 5-bob 36-bandi bo'yicha mazkur ekspertiza xulosasining amal qilish muddati 2-yil.

7. Xulosalar.

Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda **«Buxoro shahar Sa'diy Sheroziy MFY Abu Ali Ibn Sino ko'chasida "Zikkurat group MCHJ" "Birinchi qavatlarida savdo va maishiy xizmat ko'rsatish, yuqori qavatida ko'p xonadonli turar joy" binosi (A va B bloklar)»** ishchi loyihasi kelgusida ko'rib chiqib tasdiqlashga tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Karimov Bahridin Baxtiyor O'g'li.

Ishtirokchi ekspertlar: Djurayev Muxammadjon Akobirovich, Muxammedov Timur Furkatovich, Turdiyev Xalik Muzafarovich, Adizov Baxodir Botirovich, Pondina Natalya Rafikovna, Viryaskina Zoya Petrovna, Nurxonov Farrux Tilloyevich